

Angren shahar
41-umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Ahmadaliyeva Dilfuzaning
ona tili fanidan ochiq dars
ishlanmasi.



Angren 2016y.

Dars mavzusi. Mustahkamlash mashqlari (145-148-mashqlar).

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: *kim?*, *nima?* so'roqlariga javob bo'lgan (bitta shaxs va bitta narsani bildirgan) birlikdagi hamda *kimlar?*, *nimalar?* So'roqlariga javob bo'lgan (ikki va bir necha narsa va shaxsni bildirgan) ko'plikdagi so'zlarni matndan aniqlash va shu mavzuga oid bilimlarini mustahkamlash.

Tarbiyaviy: o'quvchilarda vatan tuyg'usini shakllantirish, uni sevish va qadirlash ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning imloviy savodxonligini oshirish.

Dars turi: bilim, ko'nikma va malakalarni umumlashtiruvchi dars.

Dars metodi: suhbat, savol-javob, analiz-sintez, "Sinkveyn" va "Quyosh" metodlari, ta'limiy o'yin.

Dars jihozi: mavzuga oid rasmlar, boshqotirma, tarqatma materiallar.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

II. Uy vazifasini tekshirish.

Uy vazifasining bajarilishini tekshirshi. Uy vazifa (140-mashq) "Kim zukko?" ta'limiy o'yini asosida tekshiriladi. Matnni o'qish, o'quvchilar o'qilgan matndan *kimlar?* so'rog'iga javob bo'lgan so'zga bitta, *nima?* so'rog'iga javob bo'lgan so'zga ikkita chapak chaladilar.

Kimlar?: kishilar, o'quvchilar'...

Nima?: qalam, mchka, o'chirg'ich, qalamdon...

O'quvchilar rag'batlantiriladi.

"Ha-yo'q" mashqi:

- 1) O'zbek tilida faqat undosh tovushlar bo'ladi? (Yo'q)
- 2) O'qish darslarida faqat she'rlarni yod olamiz. (Yo'q)
- 3) O'zbekistonning poytaxti Toshkent shahri. (Ha)
- 4) Alifboda 29 ta harf bor. (Ha)

5) "Vatan – bu ..." she'rining muallifi Po'lat Mo'min. (Ha)

6) Gaqat bir tovushni bildiruvchi harf bu "j" harfi. (Yo'q)

"So'z tuz" o'yini.

Husnixat daqiqasi

Kichik "b" harfi usti halqali osti yarim oval shakldagi unsurlarga ajratilmay bir butun shaklda yoziladi.

Daftarga bir qator kichik "b" harfini va shu harf bilan bog'langan so'zlarni yozadilar: *bahor, bobo, barg, bino*.

Dam olish daqiqasi

Yorug' berar derazam,

Oynalari sinmasin.

Ozoda turar har dam,

Chang va to'zon inmasin.

III. Yangi mavzu bayoni.

"Boshqotirmani kim to'g'ri topadi?" savoli orqali yangi mavzuni tushuntirish. O'quvchilarga xo'roz bilan qandning rasmini ko'rsatib, quyidagi savollarni berish:

- Rasmda nimalarni ko'rayapsiz?

(Xo'roz bilan qandni ko'rayapmiz.)

Xo'roz so'ziga savol bering. Xo'roz - *nima?*

Xo'roz parrandaning nomi, qand narsaning nomi bo'lib, *nima?* so'rog'iga javob bo'ladi. Ikkita so'zning qo'shilishidan yangi so'z hosil bo'ldi.

Xo'rozqand - narsaning nomi, *nima?* so'rog'iga javob bo'ladi.

145-mashqdagi boshqotirmani bajarishda mashqdagi rasmlardan foydalanish. O'quvchilar narsalarning nomini aytadi va yangi so'z hosil qiladilar.

Gul + don = guldon

Mo'y + qalam = mo'yqalam

Gul + karam = gulkaram

Hosil bo'lgan so'zlarga so'roq berib, so'zlarni so'rog'i bilan birga ko'chiradilar

Boshqotirmadan kim ko'p so'z topsa, rag'bat kartochkasi bilan rag'batlantirish. Bu mashq orqali o'quvchilar ikkita narsaninig nomini bildirgan so'larning birikishi hamda narsa nomiga qo'shimcha qo'shish orqali yangi narsani nomini bildirgan so'z hosil bo'lishi, ya'ni so'zning morfemir tarkibiga oid bilimlarni amaliy o'zlashtiradilar.

Multimediali ilova asosida mashqni bajarish.

Ekranida 145-mashqdagi boshqotirma beriladi. Boshqotirmadagi rasmlar ostida bo'sh kataklar bo'ladi. O'quvchi boshqotirmadagi so'zlarni topib, ekran ostidagi klaviaturadan foydalanib yozadi. So'z yozilgach, boshqotirmadagi rasm yo'qoladi va so'z yonida qavs paydo bo'ladi. Qavs ichiga o'quvchi shu so'zning so'rog'ini yozishi kerak. *Guidon (nima?), baliqchi (kim?), mo'yqalam (nima?), gulkaram (nima?), xo'rozqand (nima?), o'yinchoq (nima?)*. Boshqotirmaning yeching. Bo'sh kataklarga rasmlar nomini va hosil bo'lgan so'zlarning so'rog'ini qavs ichiga yozing. Topshiriqlar noto'g'ri bajarilsa "O'ylab ko'ring" so'zi eshitiladi.

Darslik bilan ishlash.

146-mashq shartini o'quvchilarga o'qitish.

Bizning Vatanimiz - O'zbekiston. Vatanimizda o'zbeklar, qirg'izlar, qoraqalpoqlar, ruslar, armanlar, qozoqlar, tojiklar, turkmanlar, tatarlar va boshqa xalqlar ahil yashaydilar, mehnat qiladilar.

Mashq matni asosida quyidagi savollarni o'quvchilarga berish:

- Bu mashq nima haqida ekan? (Vatanimiz haqida ekan.)
- Vatan deganda nimani tushunasiz? (Vatan biz tug'ilib o'sgan joy.)
- Vatanimiz qanday nomlanadi? (Vatanimiz O'zbekiston deb nomlanadi.)

Vatanimiz O'zbekiston deb nomlanadi. Vatanimizda turli xalqlar tinch-totuv yashaydilar va mehnat qiladilar. Mana shunday jan- natmakon vatanda yashayotganimizdan faxrlanishimiz, uni avaylab asrashimiz kerak. Siz o'quvchilar esa hozir a'lo baholaringiz bilan o'z hissangizni qo'shishingiz kerak.

Kimlar? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni doskada o'quvchilar "Quyosh" mctodidan foydalanib, so'zlarni yozib chiqadilar.

Kimlar?: o'zbeklar, qirg'izlar, qoraqalpoqlar, ruslar, armanlar, qozoqlar, tojiklar, turkmanlar, tatarlar.

Multimediali ilova asosida mashqni bajartirish.

Ekranda 146-mashq matni ovozli o'qish orqali paydo boladi.

O'quvchilar, matndan *kimlar?* so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni aniqlang.

Bolalar *kimlar?* so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni topganda, millat vakillarining rasmlari giperssilka tarzida ko'rsatiladi va shu so'zlar rangi to'qlashadi.

Bizning Valanimiz - O'zbekiston. Vatanimizda o'zbeklar, qirg'izlar, qoraqalpoqlar, ruslar, armanlar, qozoqlar, tojiklar, turkmanlar, tatarlar va boshqa millat vakillari ahil yashaydilar, mehnat qiladilar.

IV. Mavzuni mustahkamlash.

Doskaga Shukur Sa'dullaning 147-mashqdagi she'ri yozilgan ko'rgazmani ilish. O'quvchilar she'rdagi tushirib qoldirilgan harflarni qo'yib, she'rni o'qishadi.

Keng dalalar, o'rmon, dengizlar,

Culzor, bog'lar - bari bizniki.

Daryo, ko'llar, serhosil yerlar,

Oltin tog'lar hur elimniki.

O'quvchilar daftarlariga nuqtalar o'rniga tushirib qoldirilgan harflarni qo'yib, she'rni ko'chiradilar. *Nimalar?* so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarning tagiga chizadilar. Bu mashqda ham "Quyosh" metodidan foydalanamiz.

Nimalar?-. dalalar, dengizlar, bog'lar, ko'llar, yerlar, tog'lar.

-Nima uchun shoir hamma narsani bizniki, elimniki deb ataydi?

-She'r haqida tushunganlaringizni so'zlab bering.

-Mashqda uchragan so'z birikmalariga izoh berish

Lug'at ishi:

serhosil yerlar - ekin ekilgan yerdan mo'l hosil olish; unumdor yer

oltin tog'lar - o'xshatish; tog'dagi foydali qazilmalarning ko'pligidan tog' oltinga o'xshatilgan

"Sinkveyin metodi orqali yer so'ziga ma'nodosh so'z toptirish. Buning uchun o'quvchilarga quyidagi tartibda tarqatma topshiriqlar beriladi.

1.	Niim?	
2.	Qanday?	
3.	Nima qiladi?	
4.	Gap	
5.	Ma'nodosh so'z	

N a m u n a :

1. *Nima?* Yer.
2. *Qanday?* Serhosil, unumdor.
3. *Nima qiladi?* To'ydiradi, boqadi, beradi.
4. *Gap.* Serhosil yer odamlarni to'ydiradi, boqadi.
5. *Ma'nodosh so'z.* Zamin.

Multimediali ilova asosida mashqni bajartirish.

Ekranida 147-mashq matni sinfxonaning doskasida beriladi. Nuqtalar o'rniga qo'yilishi lozim bo'lgan harflar she'r matni ostida geometrik shakllar ostida beriladi. O'quvchilar nuqtalar o'rniga mos harflarni qo'ygach, *nimalar?* so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni topishlari lozim. So'z to'g'ri topilganda, shu so'z ostida bir to'g'ri chiziq chiziladi. Topshiriq noto'g'ri bajarilsa "O'ylab ko'ring" so'zi eshitiladi.

Tarqatmali materiallar bilan ishlash

№ 1

Kim? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni kimlar? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarga aylantirib yozing.

Odam, to'quvchi. shifokor, ishchi, hcn'clovhi, tikuvchi, singil, aka.

№2

O'qing. Ko'chiring. *Nimalar?* so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarning tagiga chizing.

Yana yillar o'tar, bahorlar balqir.

Yana ko'zlarimda runglanar gullar.

№3

Nima? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni *nimalar?* so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarga aylantirib yozing.

Qalam, daraxt, gul, ko'prik, qaychi, she'r, qush, ko'ylak.

№4

O'qing. Ko'chiring. Narsa nomini bildirgan so'zlarning tagiga chizing.

Shahar, qishloq, dala, bog'

Qoplandi kumush zarga.

Tabiat o'xshar go'yo

Ochilgan paxtazorga.

V. Darsga yakun yasash va baholash.

O'quvchilarning darsdagi faolligi, topshiriqlarni bajarish darajasiga ko'ra o'qituvchi tomonidan ballari e'lon qilinadi va rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifa berish. 148-mashq.

148-mashq shartiga ko'ra bajariladi.

To'rtta *kim?* so'rog'iga javob bo'lgan va to'rtta *nima?* so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni yozish topshirig'i beriladi.